



## NAVOIY PATQALAMDA YOZGANMI? YO‘Q!

*Yaqinda “TURON – IQBOL” nashriyotida filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo‘ldoshevning “O‘zbek kitobat san‘ati va terminologiyasi” nomli kitobi chop etildi. Ushbu kitobda o‘zbek madaniyatshunosligida hali to‘liq tadqiq etilmagan kitobatchilik tarixi va terminologiyasining shakllanishi, taraqqiyoti haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Qolaversa, muallif kitobatchilik sohasini o‘rganish jarayonida qadimda kashf etilgan o‘zbek qog‘ozining dunyo sivilizatsiyasiga ta’siri, qo‘lyozma san‘ati, kitobatchilikda qo‘llanilgan qalam, siyoh kabi yozuv ashyolari tarixi bo‘yicha ham qiziqarli ma‘lumotlar beradi.*


*Umuman olganda, mazkur tadqiqot o‘zbek terminologiyasi, kitob madaniyati, kitobatchilik tarixiga oid qimmatli ma‘lumotlarni o‘z ichiga olganligi bilan alohida xarakterlanadi.*

*Mazkur monografiyani o‘qish jarayonida biz hozirgi kunda ko‘zimizga oddiygina tuyuladigan kitob va uning tarixi haqida bir olam ma‘lumotlar olish bilan birga, qiziq ma‘lumotga duch keldik. Ko‘pchiligimiz mumtoz asarlarimiz, qadimiy qo‘lyozmalarimiz qanday yaratilgan, ular nimada yozilgan degan*

*savolga patqalamda deya javob beramiz. Aksariyat ommaviy axborot vositalari, televideniye va boshqa vizual vositalarda qadimiy asarlar yaratish jarayonini, umuman mumtoz asarlarni kitob va patqalam obrazi orqali shakllantirishga o'rganib qolganmiz.*

*Aslida-chi? Buyuklarimiz, xususan, Navoiy bobomiz patqalamda yozganmi?*

*Bu savolga to'laroq javob olish uchun muallifning o'zi, O'zbekiston davlat madaniyat va san'at instituti rektori, professor Ibrohim Yo'ldoshevni suhbatga tortdik.*



– Ibrohim Jo'rayevich, yaqinda sizning "O'zbek kitobat san'ati va terminologiyasi" nomli kitobingizni o'qib chiqdim. Kitobdan hozirda oddiygina bir kundalik vositaga aylanib qolgan kitob va kutubxonalar bir qancha tadrijiy bosqichlarni bosib o'tganligini, qadimda hayvonlar terisiga yozilib, hozirgi qog'oz shakliga o'tilguncha muayyan vaqt va tajriba kerak bo'lgani haqidagi ma'lumotlarni bilib oldim. Xususan, dunyo kitobatchiligi tarixida qalam, patqalamning qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar men uchun ham, shu bilan birga, gazetxonlarimiz uchun ham qiziqish uyg'otishi tabiiy.

– Qo'lyozma yaratish tarixidagi eng asosiy yozuv qurollaridan birining nomi qalamdir. Qadimda uning bir qancha turlari bo'lgan. Masalan, ulardan biri cho'palam termini bilan

atalgan va u yog'ochga ishlov berish natijasida yasalgan. G'oz patidan tayyorlangan qalam turiga nisbatan patqalam terminini ishlatamiz. Qadimda kotiblar qamish qalam bilan birga suyak yoki metallardan ishlangan qalam turlaridan ham foydalanishgan.

G'arb dunyosida bu qalam turlari o'rnini asta-sekinlik bilan parrandalar patidan tayyorlangan patqalamlar egallay boshlagan. Atoqli olim A.P.Kajdanning fikricha, antiq davr kotiblari, buyuk ehtimolda, patqalamdan foydalanishmagan; har holda, u davrlarga oid yunon yoki rim yodgorliklarining birontasida ham patqalamdan foydalanilganligi qayd etilmagan, aksincha, barcha matnlarda qamish qalam yodga olingan, rassom suratlarida ham, asosan, qamish qalam tasvirlangan. G'arbda XI asrga qadar yaratilgan diniy miniatyuralarda yevangelist (injilchi)lar surati qo'llarida qamish bilan tasvirlangan. XI asrdan keyingina Yevropada patqalam ishlatish urfga aylangan. – Demak, patqalam tushunchasi bizga Yevropa orqali kirib kelgan?

– Rus kitoblarida, A.P.Kajdanning yozishicha, qamish qalam deyarli qo'llanmagan. I.YE.Barenbaum qadimgi rus kotiblari yozuv ishlarida, asosan, patqalam ishlatganligini, uning g'oz, oqqush, hatto, tovus patlaridan tayyorlanganligini yozadi . Keyinchalik qadimgi Yevropaning ayrim hududlarida, bunga taqlid sifatida Suriyada ham patqalam ishlatish bir muddat urfga aylangan.

– Osiyo mamlakatlarida qanday yozuv ashyolaridan foydalanishgan ?

– Arab qo'lyozma kitobatchiligida yozuv qurollari sifatida qamish qalam birinchi o'rinda turgan. Arablar ushbu yozuv qurolini qalam, mizbar, yara kabi terminlar bilan atashgan. Bu nomga hamda predmetga tarixda juda katta hurmat-e'tibor bilan qarashgan va unga har doim hamdu sanolar aytilgan. Islom dunyosida qalamning ilk ta'rifi muqaddas Qur'oni Karimda aytilgan. Qur'oni Karimning ilk nozil bo'lgan suratlaridan birining nomi ham "Qalam" surasi bo'lgan. Sura avvalida Alloh taolo inson zotiga ato etgan buyuk ne'mati – qalam va u bilan bitiladigan bitiklarga qasam ichib, o'z payg'ambari Muhammad

alayhis-salomning Makka mushriklari hasad, adovat bilan u kishiga taqayotgan tuhmat – majnunlik aybidan pok ekanligini uqtiradi.

Qalam leksemasi asli yunoncha (qalamos) bo'lib, yunon tilida "qamish"ni ifodalagan. Bu leksema o'zbek tiliga arab tili orqali o'zlashgan. Arab tilida qalam leksemasining ma'no anglatish ko'lami ancha keng. Uning asosiy ma'nolaridan biri yozuv quroli ekanligi hammamizga yaxshi ma'lum.

Albatta, arab kitobatchiligi bilan o'zbek kitobatchiligi o'rtasida tarixiy mushtaraklik mavjud. O'rta Osiyoga muqaddas Islom dini bilan birga, arab tili va u orqali ko'plab arabcha so'zlar kirib keldi. Arabcha o'zlashma qatlamning miqdori sohalarga ko'ra turlicha bo'ladi. Xususan, o'zbek kitobatchiligida uning miqdori ancha salmoqlidir. O'rta Osiyoda ham asosiy yozuv quroli qamish qalam bo'lganligi va uni ifodalashda arab tilidan o'zlashgan qalam termini qo'llanilgani ma'lum.

Arab tilida qalam leksemasining lug'aviy ma'nosi "kesilgan, tarashlangan, kesik"dir. Shu ma'noda qalam yozma adabiyotda ko'plab uchraydi.

O'rta asrlarda yaratilgan ba'zi asarlarda qalamning ta'rifini keltirishda turli stilistik bo'yokdorlikka ega bo'lgan xizrsifat qalam, ikki tilli qalam, gavharraqam qalam, mushkinraqam qalam, xushbo'y qalam, tuzatish qalami, nozik naqsh so'zlovchi qalam, tahrir qalami kabi birikma shaklidagi terminlar ham muomalada bo'lgan.

Xattotlik ishida ko'llangan qamish qalam tayyorlash jarayoni ancha murakkab bo'lgan. Qalam tayyorlash kishidan o'ziga xos malaka va tajriba talab kilgan. Qalam yasashga mo'ljallangan qamish turi to'g'ri kelgan joydan olinmagan, ular turli joylarda yetishgan. Xususan, XVI asrning yetuk xattotlaridan bo'lmish Fatxulloh ibn Ahmadning fikricha, Vosit shahri (Kuf va Basra shaharlari o'rtasida joylashgan) atrofida yetishgan qamish eng oliy nav hisoblangan bo'lsa, Amudaryo sohillarida o'suvchi qamish o'zining sifati bo'yicha ikkinchi o'rinni egallagan.

Qamishning yetishgan joyiga ko'ra qalam turlarini anglatuvchi

terminlar ham joy nomlariga ko'ra yasalgan: vositiy, amuriy, misriy va mazandaroniy va boshqalar. Vositiy termini Kufra va Basra shaharlari orasida joylashgan Vosit degan joyda, amuriy Amudaryo sohillarida, misriy Misrda, mozandaroniy Mazan – daronda yetishgan qalam turlariga nisbatan qo'llangan. Bu qamish qalamlarning har biri bir-biridan qamishning rangi, qattiqligi va qalinligi kabi xususiyatlari bilan farq qilgan. Buyuk olim va shoir Umar Xayyomning yozishicha, qalamning o'n ikki xili mavjud: ularning har birining o'z uzunligi, yo'g'on-ingichkaligi va shakli bor. Xattotlar ularning har birini buyuk odamlarning nomlari bilan ataydilar. Bularning har birining o'z qadri, o'lchovi va shakli bor.

Qalamning ta'rifi haqida Yusuf Xos Hojibdan tortib to Alisher Navoiygacha bo'lgan mutafakkirlar o'zining deyarli har bir asarida aytib o'tadi. Xususan, Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida shunday deydi:

"Qalam bahri kafida turfa ishdur,  
Magar daryo aro butgan qamishdur,  
Ajab ermas qamish bo'lmoq shakarrez,  
Va lekin bu qamish bo'lmish guharrez".

Bir so'z bilan aytganda, qadimgi sharq xalqlarida hamisha qalam, ya'ni, qamishdan yasalgan qalamlar yordamida asarlar yaratilgan. O'zbek, umuman turkiy xalqlar kitobatchiligi tarixida patqalamda yozilgan asarlar haqida deyarli ma'lumotlar uchramaydi. Ammo hanuzgacha ajdodlarimiz patqalamda ijod qilishgan, degan noto'g'ri tushuncha tasavvurimizda shakllangan. Hatto mamlakatimizning bir burchida patqalamga haykal ham qo'yilganiga ko'zim tushdi. Umuman, o'zbek kitobatchiligi san'ati ulkan bir tarix. Uni o'rganishni boshlasangiz, ajdodlarimiz hech bir taraqqiyotga yoki ma'rifatga osmonlikcha erishmaganliklariga guvoh bo'lasiz. Bu haqda siz nazarda tutgan kitobda batafsil to'xtalib o'tganmiz.

**Alimurod Tojiyev suhbatlashdi**